

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06. 2021. Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MUQIMOVA GULNORA RASHIDOVNA

**FITOMORF METAFORALARNING LINGVOPOETIK,
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI VA LEKSIKOGRAFIK
TALQINI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Muqimova Gulnora Rashidovna

Fitomorf metaforalarning lingvopoetik, lingvokulturologik xususiyatlari va leksikografik talqini..... 5

Мукимова Гулнора Рашидовна

Лингвопоэтические, лингвокультурологические особенности и лексикографическая интерпретация фитоморфных метафор..... 23

Mukimova Gulnora Rashidovna

Lingupoetic, linguocultural characteristics and lexicographical interpretation of phytomorphic metaphors..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06. 2021. Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MUQIMOVA GULNORA RASHIDOVNA

**FITOMORF METAFORALARNING LINGVOPOETIK,
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI VA LEKSIKOGRAFIK
TALQINI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.I.PhD/Fil 1087 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasining (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Saidov Yoqub Siddiqovich,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


Rasmiy oponentlar: Quvvatova Dilrabo Habibovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xo'jamurod
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 13 mart soni 9 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14, faks: (+99865221-29-14, email: buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (11 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14))

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 11 mart kuni tarqatildi.
(2023-yil 11 mart dagi 1 -raqamli reyestr bayonnomasi)



G.N. Murodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.L.G. Shullayeva
Ilmiy kengash
a'zosi, filologiya fanlari doktori, falsafa
doktori (DSc), dotsent

M.K. Abuzalova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qushibasi, ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tilga xos hodisa va xususiyatlarni zamonaviy falsafa, adabiyotshunoslik hamda lingvistika sohalarida erishilgan yutuq va natijalar bo'yicha o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur sohalaridagi tadqiqotlar muayyan tildagi o'simlik nomlari asosida shakllangan metaforalarning ko'lami, jihatlari, xalq tafakkurini takomillashtirishdagi o'rni bo'yicha tizimlashtirilgan muayyan bilim va tasavvurlarga ega bo'lish, ma'lum bir ijodkorning ulardan foydalanish mahoratini ko'rsatib berish hamda lug'atlarda izohlash tamoyillarini ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo lingvistikasida tilning nutq, tafakkur va madaniyatga munosabati masalasini o'rganish qadimgi davrlardan boshlanib, hozirgi kunga qadar muntazam davom etib kelmoqda. Biroq mazkur masalaga ilmiy yondashuv turli davrlarda turlicha mohiyat kasb etganligini kuzatish mumkin. Lisoniy va lingvomadaniy birlik – fitomorf metaforalarni badiiy-estetik, lug'aviy-ma'noviy va lingvomadaniy aspektida tadqiq etish, ularning asosiy badiiy-lug'aviy xususiyatlarini ochib berish, taraqqiyot qonuniyatlari va mukammallashish jarayonlarini aniqlash, tizimlashtirish, tavsiflash, tasniflash, o'simlik nomlari asosida shakllangan metaforalarning ko'lamini aniqlash, xalq tafakkurini takomillashtirishdagi o'rni bo'yicha tizimlashtirish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

O'zbek tilshunosligida yozma matnlardagi lug'aviy-badiiy va madaniy birliklarni antroposentrik aspektida o'rganish borasida samarali hamda jiddiy izlanishlar olib borilmoqda. Sharq, jumladan, o'zbek badiiy san'atlari tizimida asosiy o'rin egallovchi va xalqning madaniy mavqeyini belgilaydigan fitomorf metaforalarning badiiy-estetik, lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlarini, leksikografik talqinini tilshunoslikning zamonaviy ilmiy qarashlari, metodologiyasi va metodlari asosida o'rganishni ijtimoiy ong taraqqiyoti taqozo etib turibdi. Zero «Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir»¹. Shunga ko'ra o'zbek yozma manbalaridagi fitomorf metaforalarni yaxlit tizim sifatida o'rganish, ularning qo'llanish darajasini ijtimoiy davr bosqichlari bo'yicha aniqlash, badiiy-estetik xususiyatlarini tadqiq etish, til va madaniyatda tutgan o'rnini belgilash, shoirlarning ulardan foydalanishdagi poetik mahoratini asoslash, lug'atlarda talqini masalalarini hal etish dolzarb va zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida», 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» va 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» farmonlari; shuningdek, O'zbekiston

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев // Она тилимиз ривожини таъминлаш – асосий мақсадимиз. // Янги Ўзбекистон, 2020, 12 сентябрь. № 175

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son «Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida», 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son «O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida», 2020-yil 29-yanvardagi 40-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa ma‘muriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida fitonimlarning lingvistik tabiati, ko‘chimni shakllantirishdagi o‘rni, lison va nutqda qo‘llanish darajasi kabilar o‘rganilgan. Chunonchi, ingliz tili fitonimlarining tahlili J.Rasa, D.Xuk, U.Krishke, D.Herman kabilarning ishlarida amalga oshirilgan. Mazkur ishlarda fitonimlarning strukturasi, semantikasi, tasnifi, so‘z yasashdagi o‘rni kabilar diaxron va sinxron aspektda o‘rganilgan.² Rus tili fitonimlarining etnobotanik, terminologik, strukturaviy, semantik xususiyatlari va leksikografik talqini O.P.Ryabko, T.V.Soy, S.Y.Dubrovina, A.M.Letova kabilarning tadqiqotlarida tahlilga tortilgan³.

O‘zbek tilshunosligida fitonimlarning strukturaviy-funksional, leksik-semantik, tarixiy-etimologik tahlili X.Jamolxonov, Y.Eshonqulov, G.X.Nigmatova kabilar tomonidan qisman o‘rganilgan⁴. M.Xoshimxo‘jayevaning “Olamning lisoniy tasvirida fitonimlar (ingliz, rus va o‘zbek tillari misolida)” nomli tadqiqotida

² Raṭā G., Samfira I., Sala F. *Agricultural English*. – Newcastle upon Tyne: Cambridge Scholars Publishing, 2012. – 385 p.; Hooke D. *Trees in Anglo-Saxon Charters: Some Comments and Some Uncertainties // Old Names – New Growth: Proceedings of the 2nd ASPNS Conference, University of Graz, Austria, 6-10 June 2007, and Related Essays*. – Frankfurt am Main: Lang, 2009. – pp. 75-98.; Krischke U. *On the Semantics of Old English Compound Plant Names: Motivations and Associations // Old Names – New Growth: Proceedings of the 2nd ASPNS Conference, University of Graz, Austria, 6-10 June 2007, and Related Essays*. – Frankfurt am Main: Lang, 2009. – pp. 211-278; Herman D., Moss S. *Plant names and folk taxonomies: Frameworks for ethnosemiotic inquiry // Semiotica 2007, № 167*. – pp. 1-11.; Рябко О.П. *Номинативные и структурно-семантические свойства сложных субстантивных образований (на материале наименований растений): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Р.-на-Д., 1988. – 24 с.*

³ Рябко О.П. *Номинативные и структурно-семантические свойства сложных субстантивных образований (на материале наименований растений): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Р.-на-Д., 1988. – 24 с.*; Цой Т.В. *Лексико-семантическая и словообразовательная структура фитонимов и их закономерности описания фитонимов в толковых словарях: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1995. – 24 с.*; Дубровина С.Ю. *Русская ботаническая терминология в этнолингвистическом освещении (на материале названий растений, образованных от названий животных и птиц): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1991. – 25 с.*; Летова А.М. *Семантические особенности фитонимов в русском фольклоре: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2012. – 25 с.*

⁴Жамолхонов Х. *Ўзбек ботаника терминологиясининг шаклланиш ва ривожланиш тарихидан: Филол. фан. ном. ... дисс. автореферати. – Т., 1969. – 25 с.*; Эшонкулов Ю. *Опыт историческо-этимологического анализа названий плодов в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1977. – 24 с.*; Нигматова Г.Х. *Система и художественное функционирование лексем-названий растений в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1998. – 21 с.*

shakl, rang, vaqt, ta'm, miqdor, hid tushunchalari asosida ingliz, rus va o'zbek tillari fitonimik leksikasida motivatsiyaning tipologiyasi, fitokomponentli frazeologizmlarining inson tafakkuri va madaniyati bilan bog'liq konseptual-ideografik hamda konnotatsion xususiyatlari kabilar tadqiq etilgan.⁵

Yuqoridagilardan anglashiladiki, fitonimlar asosida shakllangan metaforalarning lug'aviy-badiiy va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish, taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash, yaxlit ilmiy tizimga solish, tavsiflash, tasniflash, leksikografik talqinini amalga oshirish, ulardan ijodkorlarning foydalanish mahoratini namoyish etish kabilar o'zbek tilshunosligida hozirgi kunga qadar maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari" (2020-2024-yy) yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek badiiy matnlaridagi fitomorf metaforalarining lingvopoetikasini o'rganish, lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berish, leksikografik talqini va tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o'zbek tilshunosligida metafora, lingvopoetika va lingvokulturologiyaga doir tadqiqotlarni tanqidiy ko'rib chiqish va ularga tegishli munosabat bildirish;

fitomorf metaforalarning shakllanish mexanizmi va manbalarini o'rganish, uning taraqqiyotiga doir lingvistik qonuniyatlarni aniqlash;

fitomorf metaforalar ekstralingvistik omillar (madaniyat, tarix, mentalitet, geografik joylashuv va bioxilma-xillik kabilar) bilan bevosita bog'liq lingvomadaniy hodisa ekanligini, uning yuzaga kelishida mazkur omillar muhim ahamiyat kasb etishini asoslash;

fitomorf metaforalarni lisoniy va madaniy jihatga ko'ra tavsiflash, ularning yozma manbalar tilidagi o'rni va vazifasini belgilash, badiiy san'atni yuzaga keltirishda muhim asos ekanini isbotlash;

she'riy asarlardagi fitomorf metaforalarni lingvopoetik aspektda o'rganish asosida o'zbek shoirlarining nafis san'atlar taraqqiyotidagi o'rni baholash, badiiy mahoratini ochib berish;

o'zbek poetik asarlaridagi fitomorf metaforalarning milliy o'ziga xosliklarini ochib berish, ular xalq madaniyatining eng qadimiy va muhim lingvokulturologik birligi ekanini dalillash;

lug'atlarda fitomorf metaforalarning izohlanishini o'rganish va tavsifiga doir tamoyillarni zamonaviy metodologiya bo'yicha qayta ko'rib chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek poetik asarlari, chunonchi, xalq og'zaki ijodi, mumtoz lirik asarlar va zamonaviy she'riy asar namunalari tanlangan. O'rni bilan boshqa poetik asarlarga ham murojaat etildi.

⁵ Хошимхўжаева М. Оламнинг лисоний тасвирида фитонимлар (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. б. фалсафа док. дис. автореф. -Т.: 2018.

Tadqiqotning predmetini esa o‘zbek poetik matnlaridagi fitomorf metaforalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda diaxron, sinxron, tarixiy-genetik, tipologik, lingvopoetik, lingvokulturologik, qiyosiy-tarixiy, etimologik va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek folklorining poetik matnlarida o‘simlik kulti bilan bog‘liq ramziy belgilar muhim o‘rin tutishi, ular, asosan, ko‘chma, chunonchi, metaforik ma’noda qo‘llanilishi, badiiy-estetik, lingvopoetik, lingvomadaniy ahamiyat kasb etishi oydinlashtirilgan;

o‘zbek mumtoz, xususan, Alisher Navoiy nazmidagi fitomorf metaforalar obrazlilikni shakllantiruvchi asos ekanligi, muhim badiiy san’at sifatida alohida o‘rin tutishi aniqlangan, ularning taraqqiyotiga doir lingvistik qonuniyatlar faktik materiallar asosida dalillangan;

zamonaviy o‘zbek she’riyati, xususan, Shavkat Rahmon va Muhammad Yusuf ijodidagi an’anaviy va individual fitomorf metaforalarning lug‘aviy-badiiy xususiyatlari, ularning fitonimlarni lingvopoetik timsolga aylantirish mezonlari bo‘yicha badiiy mahorati ochib berilgan;

o‘zbek poetik matnlaridagi farzand va qarindoshlik tushunchalari, inson xarakteri, emotsional holati, qiyofasi bilan bog‘liq fitomorf metaforalarning milliy o‘ziga xosliklari aniqlangan, ular xalq madaniyatining eng qadimiy va muhim lingvokulturologik birligi ekani ashyoviy materiallar bilan dalillangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalaridan tilshunoslik fanining yangi yo‘nalishlari bo‘lgan lingvopoetika, lingvokulturologiyani muayyan ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitish, mukammalroq va tizimli tarzda o‘rganishda foydalanish mumkinligi ko‘rsatilgan;

o‘zbek xalq og‘zaki ijodida fitomorf metaforalarning badiiy-lisoniy xususiyatlari, lingvopoetikada fitonimlarning o‘rni, vazifasi va ahamiyati, matnda ulardan foydalanish darajasini turli usullar orqali ishlab chiqilgan;

fitomorf metaforalarning lingvopoetik, lingvokulturologik xususiyatlari va leksikografik talqiniga asoslangan tadqiqot natijalari sohaga doir muhim ilmiy-nazariy ma’lumot berishi, «Hozirgi o‘zbek tili», «O‘zbek tili tarixi», «Matn tilshunosligi», til va madaniyat masalalarini o‘rganuvchi «Lingvokulturologiya» fanlari bo‘yicha yaratiladigan darslik va qo‘llanmalar, izohli lug‘atlarning mukammalashuvi, badiiy asar tilidagi o‘xshatish (tashbih)ga oid amaliy va nazariy kurslarda yoritilishi asoslangan;

tadqiqotdagi o‘simliklarning ko‘chma ma’nosiga oid material va xulosalar o‘zbek filologiyasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumot berishi, uning nazariy asoslarini boyitishi, filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, magistrantlar, ilmiy tadqiqotchilar va soha mutaxassislarining bilim va malakasini oshirishda muhim manba bo‘lishi aniqlangan;

fitonim metaforalar asosida voqelangan materiallar, ularning mag‘ziga singdirilgan umuminsoniy ezgu g‘oyalar yosh avlod ongi va qalbida madaniy-

ma'naviy meroslarimiz va ona tilimizga mehr-muhabbat tuyg'ularini yana ham kuchaytirish katta ahamiyat kasb etishi misollar asosida dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoga fanning zamonaviy metodologiyasi va usullari bo'yicha yondashilganligi, nazariy ma'lumot va faktik materiallar aniq ilmiy-badiiy manbalardan olingani, tahlilda lingvopoetik, lingvokulturologik, leksikologiyaga asoslanganligi, keltirilgan nazariy qarash, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqotdan olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, mavzu jahon tilshunosligining yangi sohaları bo'yicha tadqiq qilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tili va adabiyotidagi metaforalarning o'rni, lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari hamda badiiy-estetik vazifalari xususidagi bilimlarni mukammallashtirishda, ularni aniq tizim bo'yicha o'rganishda, lingvopoetika, til va madaniyat aloqalarini o'rganuvchi sohalaridagi ilmiy-nazariy muammolarni hal qilishda, fitonimlarning ko'chma ma'noda kelishi bo'yicha lug'at-ma'lumotnomalar yaratishda, ularning badiiy-estetik va lingvomadaniy tabiatiga daxldor masalalarni tadqiq etishda asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, uning ilmiy-faktik materiallaridan o'zbek tilshunosligining uslubshunoslik, nutq madaniyati va badiiy matnning lingvistik, lug'aviy-badiiy, lingvokulturologik tahlilini amalga oshirish, «Hozirgi o'zbek tili», «O'zbek tili tarixi», «Matn lingvistikasi», «Lingvopoetika» va «Lingvokulturologiya» fanlaridan o'quv qo'llanmalar yaratish, seminarlar tashkil qilish hamda amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanmalar va metodik tavsiyalar tuzish, tanlanma kurslar hamda seminarlar tashkil qilishda foydalanish mumkinligi, ommaviy axborot vositalarida fitomorf metaforalarini targ'ib etishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

Tadqiqot davomida o'zbek folklorining poetik matnlarida o'simlik kulti bilan bog'liq ramziy belgilar muhim o'rin tutishi, ular, asosan, ko'chma, chunonchi, metaforik ma'noda qo'llanilishi, badiiy-estetik, lingvopoetik, lingvomadaniy ahamiyat kasb etishi kabi ilmiy xulosalardan FZ-2016-0908165532-raqamli «Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi» mavzusidagi fundamental loyihada (2017-2020-yy) foydalanilgan. (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022-yil 2-noyabrdagi 304-sonli ma'lumotnomasi) Natijada loyiha doirasida tahlilga tortilgan ona tili va adabiyotini rivojlantirish haqidagi nazariy bilimlarning yangi ma'lumotlar bilan boyishiga erishilgan.

O'zbek mumtoz, xususan, Alisher Navoiy nazmidagi fitomorf metaforalar obrazlilikni shakllantiruvchi asos ekanligi, zamonaviy o'zbek she'riyati, xususan, Shavkat Rahmon va Muhammad Yusuf ijodidagi an'anaviy va individual fitomorf metaforalarning lug'aviy-badiiy xususiyatlari, ularning fitonimlarni lingvopoetik timsolga aylantirish mezonlari bo'yicha badiiy mahorati ochib berilishiga oid xulosalardan FZ-2019081663 raqamli "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga

bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini (elektron lug'atlar yaratish" mavzusidagi fundamental loyihada dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2020-2021 yy) foydalanilgan. (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2022-yil 25-noyabrda 01/04-33-sonli ma'lumotnomasi) Natijada elektron lug'atlar yaratishda dissertatsiya xulosalariga tayanilgan.

O'zbek poetik matnlaridagi farzand va qarindoshlik tushunchalari, inson xarakteri, emotsional holati, qiyofasi bilan bog'liq fitomorf metaforalarning milliy o'ziga xosliklari, ular xalq madaniyatining eng qadimiy va muhim lingvokulturologik birligi ekanligi haqidagi tahlillardan Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyati telekanalining "Assalom, O'zbekiston", "Sakkizinchi mo'jiza», ko'rsatuvlarida foydalanilgan. (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2021-yil 17-iyundagi № 1/168-sonli ma'lumotnomasi). Bu orqali ushbu ko'rsatuvlarning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan va ular yangi ma'lumotlar bilan takomillashgan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasida ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 22 ta ilmiy maqola va tezis chop etilgan. Jumladan Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 4 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta va ilmiy to'plamlarda 14 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va shartli qisqartmalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Fitomorf metaforalar lingvopoetiksi" deb nomlangan birinchi bobi to'rt bo'limdan tarkib topgan. Ushbu bobda dastlab metaforalarning mazmun-mohiyati, metaforalarning ko'rinishlaridan biri fitomorfik metafora ekanligi va ularning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanib, tadqiq qilingan.

Ayonki, ijtimoiy hayot va ong taraqqiyoti natijasida ayrim so'zlarning mazmunida muayyan o'zgarish yuz berib, ular ko'p ma'noli yoki ko'chma ma'noli so'z maqomiga ega bo'ladi. Ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri metafora bo'lib, unda muayyan narsa, belgi va harakat ikkilamchi nomlanadi.

Metafora soʻzi grek tiliga oid boʻlib, uning asl lugʻaviy maʼnosi *koʻchirish*dir. Mazkur til hodisasi qadimdan kishilarni qiziqtirib kelgan va u haqidagi empirik, nazariy qarashlar qadimgi davrlardayoq yuzaga kelgan. Metafora – nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy oʻxshashligi asosida boshqa maʼnoni ifodalash uchun ishlatilishidir.⁶ R.Qoʻngʻurov fikricha, metafora yashirin oʻxshatish boʻlib, oddiy qiyosdan farq qiladi, agar oddiy qiyos har doim asosiy ikki aʼzodan tashkil topsa (yaʼni qiyos qilinuvchi va qiyos qilinadigan predmetdan), metaforada esa faqat ikkinchi aʼzo, yaʼni oʻxshatilgan narsa qoladi, oʻxshagan narsa tushiriladi, lekin u matndan ochiq va aniq sezilib turadi, demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi aʼzo orqali idrok qilinadi.⁷

Metaforalardan badiiy asarlarda oʻz oʻrnida mohirona foydalanish yozuvchining badiiy tafakkuri va mahoratiga bogʻliq boʻladi. Ayonki, tilda metaforaning koʻplab koʻrinishi mavjud. Uning fitomorfik, zoomorfik, antropomorfik, kosmomorfik hamda abiomorfik metafora kabi turlari farqlanadi. Fitomorfik metafora – oʻsimlik nomlarining koʻchma maʼnoda kelishi va ularning shu koʻchma maʼno xususiyatlari bilan oʻzaro bogʻliq muhim til hodisasi hisoblanadi. Oʻsimlik nomlari tilshunoslikda fitonimlar deb yuritiladi (“fitos” – oʻsimlik ; “onuma” – nom)⁸. Fitonim atamasi datslab XX asrning 70-yillarida ilmfanda qayd etilgan. Fitonimlar borasida turli olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, ismlar tizimidagi otlarni ilmiy tahlil qilib, A.V.Superanskaya fitonimlarning turli nomlar sababidan kelib chiqqanligini taʼkidlab, ularning turfa tarixiy shaxslar, hodisalar va shu kabi omillar taʼsirida nomlanganligini oʻzining ilmiy asarlarida keltirib oʻtadi. Shu oʻrinda biz fitomorfik va fitonimik atamalarini bir-biridan farqlashimiz lozim boʻladi. Fitonimik metafora deganda, faqat oʻsimlik nomlari asosidagi nom koʻchishlar nazarda tutiladi: "chinor"-uzoq umr, "sarv -qad, "lola"-chiroy kabi. Biroq fitomorfik metaforada oʻsimlik nomlari, xususiyatlari, qismlari, hosil, mahsulot nomlarining metaforik qoʻllanilishi nazarda tutiladi: "danak"-nevara, "ildiz"-ajdodlar. "meva"-farzand kabi.⁹

Oʻzbek tilshunosligida badiiy asar tili lingvopoetik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan ishlar juda koʻp. Masalan, akademik Sh.Shoabduraxmonovning bir qator ishlarida, J.Lapasovning “Badiiy matn va lisoniy tahlil”, Maʼrufjon Yoʻldoshevning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” va “Badiiy matn lingvopoetikasi” shuningdek, badiiy til masalasini ayni lingvopoetik maqsadlar bilan yoritish borasida X.Doniyorov, S.Mirzayev, X.Samadov, I.Qoʻchqortoyev, X.Abduraxmonov, M.Mirtojiyev, N. Mahmudov va boshqalar alohida diqqatga sazovor bir qancha ishlarni yaratganlar.

⁶ Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Хозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Фан ва технология, 2009. -Б. 100.

⁷ Қўнғиров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Т.: Фан, 1977. -Б. 54.

⁸ Ходжиева Н. Х. Лексика фрукта в лирике Алишера Наваи //Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. – С. 148-150.

⁹ Бахрамова Д. Фитоморфик ва фитонимик метафорашнинг халк хаётидаги ўрни //Замонавий тилшунослик ва лингводидактиканинг коммуникатив аспекти Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Самарканд, 2015 йил 1-2 май, 22-23 б

O‘zbek tilshunosligida keyingi o‘n yilliklarda muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo‘llashdagi o‘ziga xosliklarini mufassal ko‘rsatishga bag‘ishlangan juda ko‘plab tadqiqotlar yuzaga kelganligi quvonarlidir. Masalan, tilshunos L.Abdullayeva o‘zining monografiyasida¹⁰ o‘zbek badiiy adabiyoti tilining leksik stilistikasi muammolari haqida fikr yuritgan. E.Qilichev esa «Badiiy tasvirning leksik vositalari» (1982) deb nomlangan kitobida badiiy tasvirda ishtirok etadigan leksik vositalar, ularning ifoda imkoniyatlari bilan bog‘liq masalalar ustida to‘xtalgan.

B.Umurqulovning «Poetik nutq leksikasi» (1990) nomli monografiyasida hozirgi o‘zbek she‘riyati tilining leksik manbalari, poetik leksika, an‘anaviy poetizmlar, so‘z variantlari va ularning estetik qimmatini kabi masalalar tadqiq etilgan. Umirova Svetlana Ma‘murjonovnananing O‘zbek she‘riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Usmon Azim she‘riyati misolida) dissertatsiyasida nazarda tutilgan shoir asarlaridagi lingvistik vositalar va uning poetik individualligi tadqiq etilgan. Yuqoridagilardan ma‘lum bo‘ladiki, o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili lingvopoetikasi bo‘yicha ancha-muncha ish qilingan.¹¹

Mazkur bobning ikkinchi fasli “O‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi fitomorf metaforalarning badiiy-lisoniy xususiyatlari” deb nomlangan va unda xalq og‘zaki ijodidagi fitomorf metaforalar aniqlanib, badiiy-lisoniy xususiyatlari tahlil qilingan

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiga tegishli asarlarning ma‘lum bir qismi o‘simliklar, ularning nomi bilan bog‘liq ekanligini kuzatish mumkin. Mazkur asarlarda o‘simlik nomlarining ko‘chma ma‘noda kelishi, insonga xos bo‘lgan xususiyatlarning o‘simlik obraziga ko‘chirilishi ko‘p uchraydi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘simliklardan chinor, terak, majnuntol, bo‘tako‘z, gul, atirgul, ra‘no, rayhon, mevalardan esa anor, anjir, behi uzum, o‘rik kabilar nomi ko‘p miqdorda metaforashtirilgan va quyidagi ma‘nolarni izohlab kelgan:

Olma fitonimi homiladorlik, farzand, voyaga yetgan va ko‘zga tashlanib qolgan qiz, sevgi-muhabbat, ma‘shuqaning yonog‘i, yuzi; *olma guli* poetik obrazi esa «qalbaki sevgi» majoziy ma‘nosida qo‘llanganligini kuzatish mumkin. *Shaftoli* fitomorfi qalbaki sevgi, ko‘p farzandlilik, o‘rik fitomorfi esa yorning chiroyli ko‘zi, serfarzandlilik, ma‘shuqa uchun oshiqning barcha qiyinchiliklarga bardoshlilik ko‘chma ma‘nolarini ifodalab kelgan. *Uzum* fitomorfi ko‘p farzandlilik, aka-uka, opa-singil ko‘chma ma‘nolarini izohlagan bo‘lsa, *gilos* fitomorfi yorning go‘zalligi, nozikligi, labi ko‘chma ma‘nolarida qo‘llangan.

Xalq og‘zaki ijodida anorning o‘rni alohida bo‘lib, u quyidagi ko‘chma ma‘nolarda qo‘llangan: bola, singil, oilali ayol, to‘kin oila, ota-ona, yoshlik. *Jiyda* fitonimi xalq qo‘shiqlarida insonlarga xos bo‘lgan salbiy va kinoyaviy ko‘chma ma‘nolarni ifodalab keladi. Ma‘shuqa (yor) og‘zini *pista* deb aytish, pistadagi kichkina ochiqlikni yor og‘zining nozik ochilishiga ko‘chirish, qovoqni bodom deb aytish, o‘zbek xalqining noyob topilmasidir. *Chinor* fitonimi quyidagi timsollarni ifodalagan: kuch, sabr, va donishmandlik, avlod, oila, turmush o‘rtog‘i, o‘g‘il

¹⁰ Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. –Т.: Фан, 1979.

¹¹ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. -Т: Фан, 2008.

farzand, qiynalganda suyanchiq bo'ladigan, qo'llab-quvvatlovchi shaxs, *qandim* fitonim esa *oshiqning og'ir kunlarda uning yonida tura oladigan yor* majoziy ma'nosida ko'p uchraydi. *Alaf* fitonimi *yoqimsiz, yaramas shaxs* yoki *xarakteri salbiy kishiga* nisbatan, *chaqirtikanak* fitonimi ko'chma ma'noda bironing yo'liga to'g'onoq bo'luvchi, unga zarar yetkazuvchi kishi ko'chma ma'nolarida qo'llangan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida *saksovul* (ma'shuqaning issiq tafti), *yulg'un* (yolg'iz qolgan oshiq), *arpa* (go'zal qiz), *shivit* (bevafo yigit), *archa* (barhayotlilik, umrboqiylik) kabi fitomorf metaforalar qo'llanganligi aniqlandi.

Bobning "O'zbek mumtoz nazmidagi fitomorf metaforalarning badiiy-lug'aviy tadqiqi" nomli uchinchi faslida Alisher Navoiy lingvopoetikasidagi fitonimlar aniqlanib, metaforik xususiyatlari tahlil qilingan.

Navoiy asarlari tili leksik boyligining muayyan qismini o'simliklar dunyosini aks ettiruvchi so'zlar tashkil qiladi. Masalan, g'azaldagi *gul* va *g'uncha* fitonimlari sevikli yor vasli g'animatligini *xor* (tikan) fitomorfidan ko'chma ma'noda bulbulning gulga bo'lgan muhabbatiga uning shaydologina emas, balki hamdardligini ifodalab kelgan. *Shoir* g'azallarida *sunbul zulf, yosuman* (jasmin) *hiylagar va makkora xarakterga ega ayol, nasrin, nastarin* yorning qaddi va yuziga muqoyasa qilinsa, *nargis* fitonimi xohish va xudbinlikni anglatadi. Navoiy poetikasida mahbubaning qomati *sarv, ra'nogul* esa tasavvuf ilmida (yaratgan)ning mutlaq jamoli ko'chma ma'nolarini izohlab kelgani kuzatildi. Shoir asarlari tilidagi fitonimlarning lingvopoetik tahlili ular, asosan, tub so'zlardan, qisman esa o'simlik nomlari vositasida hosil etilgan yasalmalardan tashkil topganligi ma'lum bo'ldi.

"Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi fitomorf metaforalar lingvopoetikasi" nomli to'rtinchi bo'limda Shavkat Rahmon va Muhammad Yusuf lingvopoetikasidagi fitomorf metaforalarning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan.

Adabiyotshunos va yozuvchi Nurulloh Muhammad Raufxon Shavkat Rahmon haqidagi "She'riyatga ko'chgan shaxsiyat" deb nomlagan yodnoma – maqolasida, shoir she'riyatini, uning shaxsiyati bilan bog'lab talqin qilgan: u she'rlarida nimaiki yozgan bo'lsa, hayotda ham o'zini shunday tutdi,¹² – deydi.

Shoir fitonimlardan asarlarida ularning o'z va ko'chma ma'nolaridan mahorat bilan foydalanib, ular vositasida ta'sirli lavhalar yarata olgan. Misol:

Oq sukunat porlar saharda, kun nurida yonib, yaraqlab,

chopib kirar sovuq shaharga yalangoyoq yashil daraxtlar. [ShRS, 5-b.]

Ma'lumki, *yalangoyoqlik* insonga xos bo'lgan ko'rinish, daraxtlarni yalangoyoq bo'lish hodisasi shoir she'riyatida shunday ta'riflangan: shaharda qish bo'yi yalang'och junjikib o'tirgan daraxtlar yashil libos kiygan emas. Balki bular butunlay boshqa daraxtlar – sovuq shaharni uyg'otish uchun, oppoq sukunatga qarshi isyon ko'tarish uchun uzoq yerlardan yayov yugurib kelayotgan allaqanday bahodirlar.¹³ Yam-yashil daraxtlar bir kechada allaqayerlardan *yalangoyoq* yugurib kelganday tuyuladi bizlarga.

Ayniqsa, uning "Ozodlik qo'shig'i" she'rida turkiylarning rus mustamlakachilaridan hurlikka erishgan kunidagi holati fitonimlar misolida berishi,

¹² Nurulloh Muhammad Raufxon .She'riyatga ko'chgan shaxsiyat // Sharq yulduzi. № 4. –B. 173-174.

¹³ Ганиев И. Шавкат Раҳмон олами. –Т.: Академнашр, 2013. –Б. 6.

she'ning obrazlilikini yanada oshirgan. Shoir shunday kunlar keladi, go'yo yaproq yozgan (bahorni sog'ingan) daraxtdek baxtga to'lasan deydi.

Yana yaproq yozgan daraxtga,
atirgulga do'narsan nuqul. [ShRS, 32-b.]

Shoir o'rgatmoq fe'lini daraxtga nisbatan qo'llab, hayot falsafasini o'quvchiga anglatishga harakat qiladi:

Har bahorda menga erinmay
yashamoqni o'rgatar daraxt. . [ShRS, 34-b.]

Muhammad Yusuf she'rlarida *lolaqizg'aldoq, rayhon, yalpiz, lola, bug'doy, paxta, tol, maysa, chinor va majnuntol* kabi fitonimlar ko'p kuzatildi. U "Bahorni g'o'raga yashirish", "yalpizga suyanib o'lib qolishi". "ikki qalbning shirin muhabbatiga guvoh bo'lgan mayin jiyda gullari", "guldan bo'sa olishga intilgan asalari" obrazlarini o'z she'rlarida mahorat bilan kuyladi.

Dissertatsiyaning "Fitomorf metaforalarning lingvokulturologik xususiyatlari" deb nomlangan ikkinchi bobi oltita bo'limdan iborat bo'lib, Lingvokulturologik tadqiqotlarning nazariy-metodologik asoslari va tadqiq usullari deb nomlangan birinchi bo'limida lingvokulturologik tadqiqotlarning nazariy-metodologik asoslari va tadqiq usullari tahlilga tortildi.

Bobning "Farzand va qarindoshlik tushunchalarini ifodalovchi fitomorf metaforalar" nomli birinchi faslida xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz nazmi va zamonaviy she'riyatda farzand va qarindoshlik tushunchalarini ifodalovchi fitomorf metaforalar aniqlanib, ularning lingvokulturologik xususiyatlari bayon qilingan.

Bobning "Umuminsoniy qadriyatlar va inson aqliy (intellektual) darajasini ifodalovchi fitomorf metaforalar" nomli uchinchi bo'limida umuminsoniy qadriyatlar va inson aqliy (intellektual) darajasini ifodalovchi fitomorf metaforalar o'ziga xos xususiyati A.Navoiy g'azallaridagi baytlar bilan tahlil qilingan. Shuningdek, Sh. Rahmon va Muhammad Yusuf lingvopoetikasida insoniy qadriyatlarni fitomorflar misolida ko'chma ma'noda kelgani aniqlandi va lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

Bobning "Inson xarakteri va emotsional holatini ifodalovchi fitomorf metaforalar" nomli to'rtinchi bo'limida inson tabiatning tarkibiy qismi va u bevosita tabiatga bog'liq bo'lganligi sababli, o'zidagi har bir holatni tabiatdagi o'zgarishlar bilan bog'lashi haqida dastlab fikr bildirilib, she'riyatda inson xarakteri va emotsional holatini ifodalovchi fitomorf metaforalarga misollar aniqlandi va tahlilga tortildi. Masalan, insonga xos bo'lgan kuchli emotsional holatni Shavkat Rahmon uzum metaforasida ko'ra oldi:

Uzum yig'lar, yig'lar buralib, yig'layverar qishgacha dildan,
Billur kabi mo'ldir turlanib, kuzda do'nar oltin shingilga.
[Sh.R.S, 69-b.]

Shoir haqiqiy yig'ini inson uzumdan o'rganishini ta'kidlaydi. Uning iqtidori metaforani hamma ko'rib turgan, lekin ilg'amagan tabiatdan olishidir. She'rda shunday falsafiy izoh bor: uzum oddiy yig'lamaydi, aynan umr oxirida, kuz faslida shunday to'lib yig'laydi. Ey odamzodning ko'zi umring o'tib borayotir, chin yig'i – umrga sarhisob yig'i nima bilmaysan, qachon to'yib yig'laysan, — deydi shoir.

Badiiy matnlarda turli obrazlar, ularning xatti-harakatlari, qilmishlari o'rtasidagi ziddiyatlar fitonimlar asosida turli ko'chimlarga murojaat qilgan holda yorqin ifodalanishi, insoniyatga xos bo'lgan barcha xislatlar fitonimlar orqali chiroyli tasvirlanishi aniqlandi va tahlil qilindi.

Bobning "Inson qiyofasini ifodalovchi fitomorf metaforalar" nomli beshinchi bo'limida badiiy matnlarda inson qiyofasini ifodalovchi fitomorf metaforalarning o'ziga xos xususiyati misollar orqali tahlil qilingan

Bobning "Suyuklilik tushunchasini ifodalovchi fitomorf metaforalar" nomli so'nggi faslida xalq og'zaki ijodi, A. Navoiy badiiy asarlari va zamonaviy she'riyatdagi suyuklilik tushunchasini ifodalovchi fitomorf metaforalar xususida so'z yuritilgan. Lirik qo'shiqlardagi ramzlarda ifodalangan ma'no tovlanishlarini aniqlamay turib, qo'shiqning asl mazmun-mohiyatini tushunib bo'lmaydi. Ularda fitomorf metaforalar alohida o'rin tutadi. Shu sababli dastlab badiiy matnlardagi suyuklilik tushunchasini ifodalovchi fitomorf metaforalarni aniqlandi va tahlilga tortildi.

Dissertatsiyaning "Fitomorf metaforalarning leksikografik talqini" deb nomlangan uchinchi bobi uch bo'limni o'z ichiga oladi. Ushbu bobda fitomorf metaforalarning leksikografik xususiyatlari batafsil yoritilib, tahlil qilingan. Bobning "O'zbek lug'atchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari" deb nomlangan birinchi bo'limida o'zbek lug'atchiligining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti, lug'atning turlari va lug'at tuzish tartibi tahlil qilingan.

"O'zbek tili o'simlik nomlarining leksikografik talqini" nomli ikkinchi bo'limida, izohli lug'atlarda berilmagan fitomorflarning metaforik xususiyatlari Alisher Navoiy ijodida mohirona tarannum etilgan. Shunday fitonimlardan biri – arg'uvon. O'zbek tilining 5-tomli izohli lug'atining 1-tom 103-betida arg'uvon haqida qisqacha ma'lumot berilgan, unda aytilishicha: 1. Yog'och uymakorligida ishlatiladigan, bahorda ochiladigan qirmizi gulli bir daraxt (burchoqdoshlar oilasiga mansub daraxtlar turkumi). Ibodillo otni qator arg'uvon daraxtlarining biriga bog'lab qo'ydi. (H. G'ulom, Mash'al).

Alisher Navoiy arg'uvon fitonimiga alohida e'tibor qaratib, uni turli ramziy ma'nolarda qo'llab, badiiy obraz darajasigacha ko'targan. U mazkur so'zni quyidagi ko'chma ma'nolarda qo'llagan:

a) ma'shuqaning ko'z yoshi:

Yuzung hajrida bilkim, qon yoshim oqmish chaman ichra,

Qachon ko'rsangki, har bir shox uza gul arg'uvon bo'lmish. [G'S, 244-b.]

Ushbu baytda shoir metaforadan mohirlik bilan foydalanganki, oshiqning ko'zidan oqqan qizil ko'z yoshi arg'uvon singari qizil deb aytilgan.

b) ma'shuqa ruxsori:

Qomatingdek bog'i husn ichra yo'q sarvi ravon:

Orazingdek xud qoni sarv uzra arg'uvon. [NSh, 444-b.]

Bu she'riy parchada arg'uvondagi qizillik mashuqa yuzining qizilligiga metafora orqali ko'chgan.

v) ma'shuqa libosi:

Ul bahori husnning ruxsorini dehqoni sun,

Arg'uvonu to'n uza aylabdurur olu guli. [BV, 35-b.]

g) oshiq ko‘zidagi yosh:

Qon yoshim sayliki tutmish dasht birla tog‘ni,

Arg‘uvunu loladin o‘zga ne butkay ul sudin.

O‘TILda arg‘uvonning ko‘chma ma‘nosi izohlanmagan. Sh.Sirojiddinov muharrirligi ostida chiqarilgan “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at”ning 75-betida arg‘uvon fitonimining yuqoridagi to‘rt xil ko‘chma ma‘nosi berilgan. Agar O‘TILga ham shunday ma‘lumotlar kiritilsa, o‘quvchi g‘azal tahlili jarayonida bu so‘zlarning ko‘chma ma‘nolarini yaxshi anglardi.

Navoiy g‘azallarida berilgan yana bir fitonim – binafsha. **Binafsha** – gunafshadoshlarga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Binafsha gullarining doimo egilib chayqalishi hamda xushbo‘yligi turli poetik obraz va ma‘nolarni ifodalagan, tasviriy adabiyotda inson aqli bilishi ojiz bo‘lgan ilohiy hikmat ma‘nosida qo‘llanilgan. Navoiy she‘riyatida yorning burama sochi va halqa-halqa zulfi binafshaga o‘xshatilgan:

Shikanj turrasidinkim girih yozilmaydur,

Binafsha durur, ammo hanuz ochilmaydur. [NN, 204-b.]

Bo‘stonafro‘z – gultojixo‘roz. Bo‘yi bir yarim metrgacha o‘sadigan, hidsiz, qizil rangda gullaydigan o‘simlik haqida Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” asaridagi 346-g‘azalda bo‘stonafro‘z fitonimi haqida shunday satrlar bor:

Bo‘ldi bo‘stoni uzoring bodadin afruxta,

Mayni go‘yo bo‘stonafro‘z ila rang aylading. [NN, 204-b.]

She‘riy parchada shoir bo‘stonafro‘zdagi qizillikni mayning rangiga ko‘chirganini guvohi bo‘lamiz.

Mumtoz adabiyotda nargis fitonimi tez-tez uchratib turadi. **Nargis** – chuchmomadoshlar oilasiga mansub xonakilashtirilgan sariq, oq rangli bahor guli. Nargis qadimda obraz va ramz sifatida ham qo‘llaniladi, Yunon mifologiyasida: o‘z husniga oshiq bo‘lib, shu ishqdan halok bo‘lgan va ma‘budlar tomonidan shu nomdagi gulga aylantirilgan yigit. [O‘TIL. T. III. 2007. -688 b] Sharq adabiyotida nargis guli jodu ohu, hindu, kofir, kufur, jallod, balo, bodom kabi istelohlar bilan birga ma‘shuqning ko‘zlariga muqoyasa qilinadi. Misol:

Ko‘zung shamoyilini nargis ar ko‘ra olmas,

Sanga ne fikr ko‘zi chiqsun ulki bo‘ldi hasus.[NSh, 122-b.]

Nilufar – nilufardoshlarga mansub suvda o‘sadigan ko‘p yillik o‘simliklar turkumi. Nilufar ramz sifatida xitoy, xind, yapon va misr san‘at va badiy adabiyotida keng qo‘llaniladi. Nilufar dunyoning timsoli, uyg‘onish, go‘zallik, hayot, baxt, poklik va ma‘naviyat ramzi. Sharq adabiyotida nilufar ma‘sumlik va sodda go‘zallikni ifodalaydi. Navoiy asarlarida, asosan, moviy rangli nilufar tasvirlanadi. Masalan,

Tutti ko‘k feruzagun jomini shingarfi bulut,

Soqiyo, nilufari jom ichra gulgun boda tut.[BB, 70-b.]

Yorning libosi va shunga monand osmon rangli nilufarga muqoyasa qilinadi:

Qo‘y duru feruza bahsinkim, nujumu charxni

Nilufar bargi uza shabnamcha ko‘rmas himmatim. [G‘S 393-b.]

“Sab‘ai sayyor” dostonidagi moviyrang qasrda aytilgan “Mehr va Suhayl” hikoyatida nilufar guli asosiy detal bo‘lib xizmat qiladi. Dostonda u sadoqat, muhabbat va jasorat ramzi sifatida qo‘llanilgan:

Ko‘ngli gar nilufarg‘a rog‘ib edi,
Mehr ila nilufar munosib edi. [SS, 24-b.]

O‘TILning 3-jild 38-betida nilufar guli haqida qisqa izoh berilgan, uning xotin-qizlar ismi sifatida qo‘llanishi xususida aytilgan. Aniqladikki, Alisher Navoiy asarlarida nilufar guli mas‘umlik, go‘zallikdan tashqari moviy rang va yorning libosi majoziy ma‘nolarida qo‘llangan.

Nasrin – zaytundoshlar oilasiga mansub bargi to‘kiladigan buta yoki daraxtlar turkumi: manzarali o‘simlik. Mumtoz adabiyotda jumladan, Navoiy ijodida uning rangi va xushbo‘yligiga ishora qilinib, nasrin ma‘shuqning qaddi va yuziga muqoyasa qilinadi. Misol:

Subh guyokim yuzing gulzoridan keldi nasim
Qim, to‘luptur atridin gulga etak, nasring‘a jayb. [NSh, 122-b.]

Rayhon – labguldoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘t. Rayhon tasavvufiy ma‘noda soflanish va riyozatlar natijasida qalbdagi paydo bo‘lgan nurni anglatadi. Navoiy asarlarida mazkur so‘z bir qancha ko‘chma ma‘noda ifodalagan. Masalan:

Gar bahor el topsa bo‘stondin gulu rayhon isi,
Kelur ul rayhon ila guldin manga hijron isi. [BV, 606-b.]

Navoiy yuqoridagi parchada agar bahor bo‘stondan guli rayhon isini topsa, menga gulu rayhon, ya‘ni yordan hijron isi keladi deydi.

Kun bila tun yuz bila xattingcha xo‘b ermas yaqin,
Bo‘lsa bu gulshanda bo‘lg‘aylar gulu rayhoncha xo‘b.

[NSh, 43-b.]

Ushbu baytda rayhon so‘zi yorning xati majoziy ma‘nosida qo‘llangan.

Ra‘no – bir tomoni qizil, bir tomoni sariq rangdagi gul. Navoiy she‘riyatida yorning go‘zal chehrasi, xush qaddi va tabiiy tarovatini ifodalab keladi:

Qasdima azm atti, vah, o‘lmakdin o‘zga chora ne
Kim, erur ham jilva ofat, ham qaddi ra‘no balo.

[BV, 43-b.]

Sabza – yashillik, ko‘kat, ko‘klam, maysa. Navoiy g‘azalida sabza, ya‘ni maysadan juda o‘rinli foydalanadi. U kiprikni juda chiroyli o‘xshatishlar orqali shabnam to‘kilgan maysaga o‘xshatadi. Misol:

Ko‘kragimdur subhning pirahanidin chokrok,
Kirpikim shabnam to‘kilgan sabzadin namnokrok.

[NSh, 326-b.]

